

ILK TEMIR DAVRIDA IJTIMOY-SIYOSIY MANZARA- XORAZM VOHASI MISOLIDA: DAVLATCHILIK VA HARBIY SOHA MASALALARI

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich

Urganch davlat universiteti, Tarix kafedrası dotsenti, PhD.

E-mail: hamdamtarix@gmail.com. Tel: (97)-601 09 40

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14722699>

Annotatsiya: Ilk temir davrida xo'jalik-madaniy manzara ancha o'zgargan. Sariqamishbo'yi Dovdon vohasida manzilgohlar va mozor qo'rg'onlar baland qirlarda joylashgan va ularning tevaragida, qadimiy sug'orish inshootlar-kanallar va ariqlarning izlari aniqlanmagan. Aholi sigirlar, qo'y-echkilarni boqqan, chorvadorlar xo'jaligida yilqichilik ham katta o'rin egallab olgan. Shu qatorda Sariqamish ko'ldan oqib chiqqan Amudaryoning qadimgi Uzboy o'zanining o'rta qismi qirg'oqlaridagi yaylovlar mil.avv.VII asrda ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan mavsumiy o'zlashtirila boshlangan. Maqolada Xorazm vohasida ilk temir davrida davlatchilik va harbiy soha masalalari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: ilk temir davri, xo'jalik-madaniy manzara, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, chorvador jamoalar, davlatchilik, harbiy soha.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В РАННЕМ ЖЕЛЕЗНОМ ВЕКЕ - НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА: ГОСУДАРСТВЕННЫЕ И ВОЕННЫЕ ДЕЛА

Матьякубов Хамдам Хамиджанович

Ургенчский государственный университет,

доцент кафедры истории, к.и.н.

E-mail: hamdamtarix@gmail.com. Tel: (97)-601 09 40

Абстракт. В раннем железном веке экономический и культурный ландшафт существенно изменился. В Довдонском оазисе близ Сарыкамыша поселения и курганы расположены на высоких холмах, и вокруг них не выявлено следов древних оросительных сооружений — каналов и арыков. Население разводило коров, овец и коз, значительную роль в животноводстве играло также коневодство. Между тем, пастбища по берегам средней части древнего Узбойского бассейна Амударьи, вытекающей из озера Сарыкамыш, начали сезонно обрабатываться кочевыми скотоводами еще в VII в. до н.э. В статье рассматриваются вопросы государственности и военной сферы в Хорезмском оазисе в эпоху раннего железного века.

Ключевые слова: ранний железный век, хозяйственно-культурный ландшафт, социально-экономические отношения, скотоводческие общины, государственность, военная сфера.

SOCIO-POLITICAL SITUATION IN THE EARLY IRON AGE - ON THE EXAMPLE OF THE KHOREZM OASIS: STATE AND MILITARY AFFAIRS

Matyakubov Khamdam Khamidzhanovich

Associate Professor, Department of History,

Urgench State University, PhD.

E-mail: hamdamtarix@gmail.com. Tel: (97)-601 09 40

Abstract. In the Early Iron Age, the economic and cultural landscape changed significantly. In the Dovdon Oasis near Sarykamys, settlements and burial mounds are

located on high hills, and no traces of ancient irrigation structures - canals and ditches - have been found around them. The population bred cows, sheep and goats, and horse breeding also played a significant role in animal husbandry. Meanwhile, pastures along the banks of the middle part of the ancient Uzboy basin of the Amu Darya, flowing out of Lake Sarykamysh, began to be seasonally cultivated by nomadic cattle breeders as early as the 7th century BC. The article examines issues of statehood and the military sphere in the Khorezm Oasis in the Early Iron Age.

Key words: early Iron Age, economic and cultural landscape, socio-economic relations, pastoral communities, statehood, military sphere.

Kirish. Bronza davrida keng o'zlashtirilgan Xorazm vohasining sharqiy qismidagi Oqchadaryo deltasida mil. avv. VII-VI asrlarga oid manzilgohlar topilmagan. Ma'lumki, bronza davrida Oqchadaryoning irmoqlaridan ariqlar chiqarilib, nisbatan kichik dalalar yarim yer to'la turar joylari atrofida joylashib, dehqonchilik ishlari urug' jamoalarning kuchlari bilan amalga oshirilgan, sug'orma dehqonchilik sohasi cheklangan holda rivojlangan.

Tahlil va natijalar. Sariqamishbo'yi saklarning hayotida o'ziga xos xususiyatlaridan iborat ijtimoiy-iqtisodiy tuzum rivojlangan. Chorvachilik xo'jaligini rivojlantirish maqsadida foydalanilgan yerlar, qabilalar o'troqlashib joylashgan yoki mavsumiy ko'chib yurgan etnik hududlarni tashkil etgan. Bu borada Daryoliq, Dovdon, Uzboy o'zanlari atrofidagi yaylovlar chorvani boqish uchun manbai bo'lgan¹.

Chorvador jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida chorvachilik xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, yaylovlarning mavsumlar bo'yicha taqsimlash va yaylovlar chegaralarini belgilash kabi katta ahamiyatga ega vazifalarni tashkil etgan. Ushbu vazifalarni qadimgi davrlarda amalga oshirilishi jarayonlarini o'rganishda va chorvachilik xo'jaligi tarixini qayta tiklashda tadqiqotchilar arxeologik va etnografik ma'lumotlarga murojaat etishadi, shuningdek, paleogeografik sharoit o'rganiladi.

Tarixiy-etnografik ma'lumotlarga ko'ra, dashtlar sharoitiga mos chorvachilik, asosan, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi (yarim o'troq) shaklda rivojlangan, negaki bunday xo'jalik sohasida ko'p mehnat sarf qilinmagan, chorva uchun yaylov o'ti ko'proq yemish bo'lgan. Shu asosda tuyalar va sovliq qo'ylar boqilgan, ular cho'l qumtepalliklarda joydan joyga ko'chishga moslashgan, aksincha, otlar daryo bo'ylari to'qayzorlarda yoki og'illarda boqilib, don va beda bilan qo'shimcha oziqlantirilgan².

Sariqamishbo'yi havzasidagi dashtlarida, ilk temir davri yodgorliklarning topografiyasi bo'yicha, taxminan 180x120 kilometr maydonda chorva boqish bo'yida (ichki Qizilqum cho'li hisobga olinmaganda) bu ko'rsatkichlar 250x150 km.ni tashkil etgan (ilova). Ushbu hududlarda turli mavsumlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi saklar jamoalari tomonidan chorva boqilishi va ko'chib yurishi maqsadlarida foydalanganligini taxmin qilishi mumkin.

Bronza davridan boshlab Yevroosiyo dashtlarida, jumladan, Orolbo'yidagi chorvadorlar jamoalarida katta patriarxal oilalarning ajralib chiqqanligi ma'lum. Bunga ishlab chiqarish kuchlarning taraqqiyoti, qo'shimcha mahsulotning qo'lga kiritilishi, mahsuldor

¹ Вайнберг Б. И., Юсупов Х. Кочевники северо-западной Туркмении // Степная полоса азиатской части СССР в скифо-сарматское время. – М.: “Наука”, 1992.

² Сазонова М. В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. – Л., 1978. – С. 54-56.

chorvachilikning rivojlanishi, ayirboshlash imkoniyatlarining kengayib borishi va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar ko'maklashgan³.

Arxeologik materiallar va ilk yozma manbalar guvohlik berishicha, mil. avv. VII asrga kelib, chorvadorlarning ijtimoiy tuzumida katta patriarxal (ota-o'g'illar) oilalarning iqtisodiy mavqei o'sib borgan. Bu davr jamiyatning tuzilishi "Avesto" da tasvirlangan. "Avesto" ning "Yasna" kitobida oila, urug', qabila tilga olinib, jamoalarning ijtimoiy tarkibida kohin, jangchi, chorvador va hunarmand ajratilgan⁴.

Manba bo'yicha oila-"nmana", jamiyat tuzilishining boshlang'ich (past) qatlamini tashkil etib, bir nechta qarindosh katta oilalar urug'-"vis" jamoalariga birlashganlar. Urug' tarkibida kamida 15 ta katta oila kirgan va urug' jamoasi jamiyatning asosi bo'lgan. Urug' jamoalari qabila –"zantu " ni tashkil etgan. Qabila yashaydigan xudud-"shoytra" deb atalgan⁵. Bu ijtimoiy tuzum dashtlarda yashovchi cho'ponlarning jamoalarida ko'chmanchi chorvachilik shakli vujudga kelishi bilan ancha taraqqiy topgan.⁶ Qadimgi yunon tarixchilarning asarlarida dasht chorvador qabilalariga – savromatlar, daxlar, saklar va massagetlarga nisbatan "etnos"- xalq tushunchasi qo'llanilmagan, ularning joylashgan hududlari muayyan nom bilan bog'lanmasdan, faqat qabilalarning etnonimi tilga olinmagan. Masalan, ushbu xolat Gerodotning bayonida: "bu massagetlar jasur va behisob qabiladir"⁷ hamda Strabonning asarida: "massagetlar va saklar qabilalarining har biri o'zining nomiga ega"⁸ degan xulosalarda yorqin ifodalangan.

Qabila avval ijtimoiy uyushma sifatida va uning tarkibiga kirgan urug' jamoalarning yoyilgan hudud, chorvadorlar tomonidan o'zlarining yurti sifatida anglangan. Yaylovlar urug'-qabila jamoalariga qarashli bo'lib, ular o'rtasida taqsimlangan. Xususiy mulkka munosabat va unga asoslangan ijtimoiy aloqalar oila va urug' jamoalari ichida qarindoshlik aloqalariga mos kelib, ishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy uyushma a'zolarining munosabatlarini mahkamlagan.

Mil. avv.VII-VI asrlarga oid saklar – xorazmliklarning ijtimoiy tizimi L.T.Yablonskiyning yozishicha, jangchilar, suvoriylar, kohinlar va kohina ayollar, urug' jamoalarining oddiy va qashshoqlashgan vakillaridan iborat bo'lgan⁹.

Sharqiy Orolbo'yida o'rganilgan mozor qo'rg'onlaridagi kohina ayollar qabrlarida e'tiqod va qurbonlikka bag'ishlangan buyumlar va ayol-suvoriylarning qabrlarida esa ot anjomlari topilgan. Ushbu topilmalar sak-massagetlarning jamiyatida ayolning baland ijtimoiy o'rni va mavqeidan hamda matriarxat izlari saqlanib qolganidan guvohlik beradi.

Gerodot va Ktesiy asarlaridan ma'lum bo'lgan sak-massagetlarning ayol yo'lboshchilari – "malika-hukmdorlar" To'maris va Zarina, yunon tarixchilari tomonidan, birinchi navbatda, harbiy yo'lboshchilar sifatida yoritilgan. Shunga ko'ra, ular harbiy ish va botirlik san'atini erkaklar qatorida o'rganib, jang usullarini bilishgan.

³ Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). XI жилд. – Тошкент: "Ozbekiston", 2023. – Б. 38-40.

⁴ Ясна. Глава XIX // Перевод Виноградовой С. П. Хрестоматия по истории Древнего Востока. – М.: "Высшая школа", 1980. – С.64.

⁵ Лившиц В. А. Общество Авесты // История Таджикского народа. – М. 1963.Т. I. – С. 139-144.

⁶ Кузьмина Е. Е. Экология степей Евразии и проблема происхождения номадизма. II. Возникновение кочевого скотоводства // ВДИ. – М., 1997. № 2. – С. 81-94.

⁷ Геродот. I. 201.

⁸ Страбон. Кн.XI, VIII, 4-5.

⁹ Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья... С. 66.

Shuningdek, Bobil, Ossuriyada kohinalar ko'proq "Tamaris" ismga ega bo'lganligiga oid ma'lumotga asoslangan holda, malika Tumaris massagetlarning nafaqat harbiy boshlig'i, balki bosh kohinasi ham edi, degan masala ilgari surildi¹⁰.

Albatta, mil. avv.VII asr Xorazm vohasida ham qabila yo'lboshchisi bosh kohin vazifalarini ado etganligi ehtimoldan holi emas, chunki urug'-qabila a'zolari o'zlarining sardorini jamoalarga eson-omonlik, farovonlik, harbiy muvaffaqiyat va mo'llik olib keluvchi, umuman foyda keltiruvchi shaxs sifatida baholaganlar.

Mil.avv. VIII-VII asrlarda Orolbo'yi hududlarida yashagan chorvadorlar harbiy sohada va qurol-yarog'lar ishlab chiqishda texnik yutuqlarga erishganlar. Tagisken, Uygarak va Sakarchaga mozor-qo'rg'onlaridan topilgan ot anjomlari, bronza va temirdan yasalgan harbiy qurollari Yevroosiyo dashtlari ko'chmanchi qabilalarning (skiflar, savromatlar) qurol-yarog'lariga o'xshab ketadi. Chorva ko'chmanchilarning eng katta boyligi bo'lgan. "Avesto"ning "Yasht" kitobida "podasi ko'p", "otlari ko'p" qabilalar yo'lboshchilari va harbiy sardorlari "yuz ayg'ir, mingta sigir va sanoqsiz sovliq qo'ylar"ni qurbonlikka keltirganlari haqida ma'lumotlar bor. Manbada chorva xo'jaligi va bevosita chorvaga oid "chorva-hayot manbai", "biz chorvaga tinch o'tlov va yemish ta'minlashga da'vat etamiz" deyilgan¹¹.

Yuqori mahsuldor chorvachilik jamoa a'zolarini, dehqonchilikka nisbatan, tez sur'atda oziq-ovqat va xom ashyo mahsulotlari bilan ta'minlashga hamda ulardan ayirboshlashda foydalanishga imkon yaratdi. Bu jamoa a'zolarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash kundalik turmush tarzida jun, teri va charmdan ehtiyojlarni qondirishda muhim edi. Chorvachilik sohasi jamoalarni moddiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Shu sababdan, ayniqsa ko'chmanchi chorvachilik sohasiga o'tish chog'ida, iqtisodiy va demografik omillari ta'sirida yaylovlarning hududiy doirasini kengaytirish, yangi yaylovlarni va tabiat resurslarini egallab olish zarurati vujudga kelgan paytlarda, kuch ishlatish va boshqalardan mol-mulkini, chorva podalarini zo'ravonlik bilan olib ketishga to'g'ri kelardi. Shu tufayli, harbiy ish, jang strategiyasi va taktikasi rivojlandi.

"Avesto" da ikki qirrali o'tkir o'qlar, tosh gurzi, harbiy oybolta, nayza, xanjar, qalqon, dubulg'a, otlar qo'shilgan jangovar aravalar va "chaqqon otlarga ega jangchilar" tilga olinib, o'tgan davrlarda yuz bergan bosqinlar va urushlar, talon-tarojlik va turar-joylarning xarob qilinishi kabi-harakatlar ochib berilgan¹².

Mil. avv. IX-VIII asrlar va ayniqsa, mil.avv.VII asr Markaziy Osiyo, Qozog'istonning dashtlarida ko'chmanchi turmush tarzi keng yoyildi, ko'chmanchilar qurol-yarog'ni rivojlantirish sohasida yutuqlarga erishib, katta harbiy kuchga aylandi. Ko'chmanchilarning bosqinlari mintaqaning janubiy viloyatlardagi o'troq aholisi uchun amalga oshadigan haqiqiy taxdid bo'lib turardi. Harbiy bosqinlardan himoyalalanish zarurati keng qamrovli himoyalalanish tizimini tashkillashtirish talab etardi. Shunga ko'ra, strategik ahamiyatga ega joylarda (dasht va tog'li aloqa yo'llari yoqalari, Amudaryodan kechuvlar, tog' daralarida) inshootlari, harbiy istehkomlar bunyod etila boshladi¹³.

¹⁰ Курбонова Д. Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – Б. 172.

¹¹ Авесто. Яшт китоби // М. Исоҳов таржимаси. – Тошкент: "Шарқ", 2001. – Б. 22-23.

¹² Авесто. Яшт китоби. Б. 67-68.

¹³ Шайдуллаев Ш. Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Ташкент: Изд. им. А. Кадири, 2000.; Сагдуллаев А. С. Становление раннебактрийской и раннесогдийской государственности // История государственности Узбекистана. – Ташкент: "Узбекистан", 2009. Т. I. – С. 79.

Yurishlar va bosqinlar ibtidoiy jamiyatning yemirilishi va qabilalarning harbiy-siyosiy uyushmalari vujudga kelishi davriga to'g'ri kelgan. Bosqinlar zo'ravonlik yo'li bilan moddiy boyliklar va qo'shimcha mahsulotni qo'lga kiritishga intilishdan kelib chiqqan. Ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zgaruvchanligi o'troq aholi bilan ko'chmanchi qabilalar hamda bevosita chorvador-cho'ponlar o'rtasida o'zaro kurashlar va raqobatlar, yuqorida qayd etilgandek, bo'z yerlar va yaylovlar uchun kurashga sabab bo'lgan. Bu jarayon "qo'shinlarning bosqinlari", "jangovar saflarning bir-biriga duch kelishi", "qonxo'r dushman qo'shinlari" kabi ta'rifda "Avesto"da o'z aksini topib, iqtisodiy va siyosiy manfaatlar ustunlik qilgan davrlardan xabar beradi¹⁴.

Bu voqealar ta'sirida ko'chmanchilarning jamiyatida yangi ijtimoiy tizim vujudga keldi. Qabila, ijtimoiy institut sifatida, urug' va jamoaga nisbatan butunlay ustunlik qila boshlaydi. Chorvadorlar jamiyati tarixiga xos qabila yig'ini, oqsoqollar kengashi, urug'-qabila boshliqlari o'z mavqei ahamiyatini saqlab turgan bo'lsada, tashqi munosabatlar tizimida harbiy yo'l boshchilar, qabilalar birlashmalari katta o'rin egallab, ularning harbiy funksiyalari oshadi¹⁵.

Orolbo'yi hududlarida bunday harbiy uyushmalar, qabilalar birlashmalari shakllana boshlaydi. V. N. Yagodinning ta'kidlashicha, tarixiy-etnografik ma'lumotlarga ko'ra, harbiy bosqinlar ko'chmanchi chorvador jamoalari tarixining "harbiy demokratiya" bosqichida yuzaga kelgan¹⁶.

Shu qatorda, bizning fikrimizcha, tadqiqotchining chorvadorlar tarixiga doir harbiy zadagonlarning qabila tarkibidagi a'zolarini "ekspluatatsiyasiga intilishi", jamoa ichida sinflarning ajralib chiqishi haqidagi xulosalari bahslidir. Bu g'oyalar ibtidoiy jamiyatdan davlatchilik tizimiga o'tishda harbiy yo'l boshchilar, "zadagonlar jamiyati" paydo bo'lishiga universal ahamiyat berish konsepsiyasi¹⁷ bilan bog'liq holda talqin qilingan.

Qadimgi chorvadorlar tarixida siyosiy uyushmalar va harbiylashish jarayonlarning paydo bo'lishi nafaqat qo'shnilariga qarshi yurishlar va bosqinlarni tashkillashtirish, balki birinchi galda, o'z hududlari va yaylovlarni, turarjoylar va manzilgohlarini hamda chorva podalarini tashqi bosqinlardan himoyalash zarurati bilan belgilangan. Shu tufayli har bir cho'pon qurollangan bo'lib, otliq va piyoda qo'shinlar safda dushmanga zarba berishga tayyor bo'lgan. Bunday urug'-qabila jamoalarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy muhit, yuqorida tasvirlangan "ichki ekspluatatsiya" va "sinflarning ajralib chiqishi" ga oid taxminiy manzarasidan ancha yiroq bo'lgan.

V.N.Yagodinining fikricha, mil.avv.VII asrning oxiri – VI asr o'rtalarida Xorazmning g'arbiy qismidagi Ko'zaliqir yangi davlatchilik markazi bo'lib, bu davlatning chegaralari Sariqamishbo'yi hududlari bilan cheklangan. Davlat boshqaruvi yo'l boshchi – "podshoh" hokimiyatiga, qabilaviy zadagonlar va harbiy qo'shin kuchiga asoslangan. Ko'zaliqirning ichki

¹⁴ Авеста. Избранные гимны // Пер. с авестийского И. М. Стеблин-Каменского. – Душанбе: "Адиб", 1990. – С. 121-123.

¹⁵ Матякубов Х. Х. Хоразм воҳасида қадимги бошқарув тизими... Б. 188-190.

¹⁶ Ягодин В. Н. Генезис и формирование... С. 119.

¹⁷ Абдуллаев Ў. И. Ўрта Осиёда ибтидий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент: "Lesson Press", 2019. – Б. 58-59.

qal’asi saroyida qabul marosimlari amalga oshirilgan va olovga sig’inish bilan bog’liq e’tiqod marosimlari ham ado etilgan¹⁸.

Tadqiqotchining qarashlari bo’yicha Ko’zaliqir harbiy – ma’muriy va ibodat markazi ko’rinishiga ega. Shu sababdan ichki qal’ada joylashgan saroyning keng hovlisida o’rnatilgan taxtida marosimlar chog’ida saklar podshosi o’tirgan ekan, hovlining ikki yon tomonida xom g’ishtdan terilgan supalarda qabila zodagonlari joylashgan, taxtning ro’parasida, hovlining markazida baland poydevorga ega ibodat otashkadasida olov yonib turgan kabi xulosalarga kelingan¹⁹.

Muhokama. Dehqonchilik vohalarida davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi davriga oid tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan va e’lon qilingan boshqaruv va nazorat funksiyalari jadvalida²⁰, mil. avv.VII asr oxirlari – VI asr o’rtalari Xorazm tarixiga xos quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy omillar muvofiq keladi:

jamoa xo’jaligi va ijtimoiy mehnat taqsimoti, xo’jalik va qurilish ishlarini tashkil etish; hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, tayyor mahsulot va xom ashyoni ayirboshlash;

jamoaning ijtimoiy aloqalarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, bahsli masalalarni hal qilish;

aholini tashqi bosqin xavfidan himoya qilish zarurati, turli xil hujum va himoya qilish qurollarini tayyorlash;

harbiy qo’shin va mudofaa ishlarini tashkil etish;

yaylovlarning maydonini taqsimlash va chegaralash;

jamoalar o’rtasida yuzaga kelgan hududiy muammolarni hal etish;

diniy marosimlarni ado etish.

Shu omillarning barchasi, jamoalarning ichki va tashqi faoliyatidagi munosabatlarni boshqarib turish zaruratini vujudga keltirib, boshqaruv ishlari bilan band bo’lgan shaxslarning saralanishiga olib kelgan.

Biroq, mil.avv.VII-VI asrlarda, Xorazmga nisbatan Sug’d, Baqtriya va Marg’iyonada manzilgohlar va aholining hududiy joylashish tamoyillari ancha farq qilib, alohida madaniy-xo’jalik tuman-vohalar tizimiga asoslangan. Tuman-vohalari manzilgohlar, irrigatsiya tizimi, sug’oriladigan dalalar, xo’jalik va qurilish maqsadida ishlatilmagan yerlar va yaylovlardan iborat bo’lgan. Shunday tumanlar dehqonchilik jamoalarning yashash uchun moddiy poydevori bo’lib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan voha hududi mehnat va ishlab chiqarish ob’ekti, ishlab chiqarish kuchlar va ishlab chiqish vositalarning to’planish joyi, xo’jalik, madaniy va boshqa ijtimoiy aloqalarning asosini tashkil etgan²¹.

Masalan, mil.avv. VII-VI asrlarda Janubiy O’zbekistondagi Mirshodi madaniy-xo’jalik tumanida (Surxondaryo vohasi) Ko’zaliqir singari mudofaa devorlari bilan o’rab olingan Qiziltepa atrofida 15-16 ta dehqonchilik uy-qurg’onlari joylashgan. Ular alohida katta patriarxal oilalarga tegishli bo’lgan va tuman-voha doirasida birlashib, hududiy qo’shnichilik

¹⁸ Ягодин В. Н. Низовья Амударьи в эпоху распада первобытно-общинного строя и возникновения первичных государственных образований // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – С. 28-29.

¹⁹ Ягодин В. Н. Низовья Амударьи..С. 27.

²⁰ Сагдуллаев А. С. Становление раннебактрийской ... С.87.

²¹ Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. – Ташкент: “Фан”, 1987. – С. 77-78.

jamoalarini tashkil etgan, uy-qurgonlar yashovchilarning bosh vazifasi qishloq xo'jalik mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularga ishlov berish bilan bog'langan edi²².

Ko'zaliqir tevaragida ham 2-3 xonadan iborat, bir-biridan 80-140 m masofada joylashgan turar-joylarning bunyod etilganligi ta'xmin qilinadi. Ammo, ular qazib ochilmagan va bu borada fikr-xulosalar ayrim joylarda sopol idishlar parchalari va ularni pishirish uchun ishlatilgan va o'z davrida buzilib ketgan xumdon qoldiqlari topilmalariga asoslangan. Xorazmda qadimiy ziroatkorlik uy-qurg'onlarning katta qismi (220 ta uy-joylar) Amudaryoning o'ng sohil hududlarida aniqlangan, lekin ular mil.avv. V-IV asrlarga, ya'ni Ahamoniylar davriga oiddir²³.

Xorazmning sharqiy qismida (Oqchadaryo deltasi) uy-qo'rg'onlar, yuqorida tilga olingan Mirshodi vohasi singari, alohida guruhlariga bo'linib, bir-biridan 50-120 m masofadagi sug'orish kanallar bo'ylarida joylashgan. Bu qo'rg'onlar qishloq xo'jalik vohalarni tashkil etgan, ba'zilarida kulolchilik xumdonlar va temirga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan ustaxonalarning qoldiqlari topilgan²⁴. Ammo, Ko'zaliqir qal'asi atrofida qo'shni jamoalarning hududiy joylashish xususiyatlari va sun'iy sug'orish inshootlar – kanal va ariqlarning izlari aniqlanmagan.

Ko'zaliqir madaniyati tub joyli saklar – xorazmliklar madaniyatini o'zgartirgan, ehtimol shu sababdan ilmiy adabiyotlarda Xorazmda sug'orish inshootlari mil. avv.VI asrning so'nggi choragida vujudga kelgan deb fikr bildirildi²⁵. Ko'zaliqir madaniyatining paydo bo'lishini migratsiyalar orqali turli madaniy yangiliklar, texnologik yutuqlar va ilg'or an'analar tatbiq etilishining mintaqada xududiy kengayib borishi bilan bog'lash zaruratini yana bir-bor ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Ko'zaliqir misolida, mil. avv. VI asrning birinchi yarmiga oid Xorazmning ijtimoiy munosabatlar tarixida murakkab jarayonlar yuzaga kelganligi (ichki qal'ada qarorgoh – saroy va e'tiqod markazining bunyod etilishi) kuzatildi. Xorazm vohasida avval ma'lum bo'lmagan harbiy istehkom, mudofaa tizim yirik imoratlarning bunyod etilishi, qurilish va arxitektura sohasida paxsa va xom g'isht ishlatilishning boshlanishi, amaliy binokorlik bilimlari va usullarining yoyilishi, kulolchilik charxi va temir qurollaridan foydalanishni ham Marg'iyona Baqtriya aholisining migratsiyalari natijasi sifatida tan olindi.

Ko'zaliqir madaniyati davrida taraqqiy etgan davlatchilik tuzilishidagi boshqaruv dastlab urug'-qabila tuzumining ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlar va e'tiqodlar an'analariga asoslanib, jamoalarning hayotiy zarur manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy hududiy va harbiy sohalarda amalga oshirish kabi vazifalar bilan belgilangan. Ammo oldingi davrlarga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va tashqi aloqalarning jadal rivojlanishi oqibatida boshqaruv funksiyalari kengayib borib, murakkablashgan.²⁶

Tadqiqotchilarning yozishicha mil. avv. 545-539 yillar orasida fors shohi Kir II Marg'iyona, Xorazm, Sug'd va Baqtriyaning zabt etib, Ahamoniylar davlatining hududiy

²² Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии...С.70

²³ Воробьева М. Г. Дингильдже. Усадьба I тысячелетия до.н.э. в древнем Хорезме // МХЭ. – М., 1973. Вып. 9. – С. 214.

²⁴ Воробьева М. Г. Дингильдже... С. 216.

²⁵ Аскарлов А. Новые подходы к изучению истории древнего Хорезма // О'zbekiston tarixi. 2007. № 4. – С. 14.

²⁶ Мамбетуллаев М. Социально-экономические и политические факторы возникновения и развития городов Хорезма эпохи античности // ИМКУ. – Ташкент, 2002. Вып. 33. – С. 127-128.

chegaralari Sirdaryo havzasi va Hindistonning shimoli-g'arbigacha yetgan²⁷. Lekin Kaspiy va Orol dengizlari o'rtasidagi dashtlarda yashagan sak-massagetlar forslarga bo'ysunmagan. Mil.avv.530 yilda Kir II ularga qarshi muvaffaqiyatsiz yurish qilgan.

Doro I hukmronligiga qadar ko'chmanchi qabilalar forslar bilan kurashgan. Mil. avv. 519 yilda fors shohi Doro I ning sakatigraxaudalarga yurishlaridan so'ng, saklar Ahamoniylar davlatiga kirgan²⁸. Qisqacha yoritilgan bu siyosiy voqealar, saklar kuchli harbiy uyushmalarni tashkil etganidan guvohlik beradi.

Xulosa. Shuni ta'kidlash joizki, Ko'zaliqir qal'asidan ilgari davrda, mudofaa devorlari bilan o'rab olingan va ichki qal'a qarorgohiga ega yirik markazlar Baqtriya va Sug'd hududlarida bunyod etilgan. Masalan, Baqtriyada Qiziltepa, Oltindilyor va Otchopar²⁹, Sug'dagi Uzunqir, Yerqo'rg'on va Ko'ktepa³⁰ shunday katta harbiy istehkomlarni tashkil etib, ular dehqonchilik vohalarida yashagan aholi va chorva uchun bekinadigan joy, harbiy bosqinlardan himoyalaniish imkoniga ega bo'lishgan.

Ko'zaliqirning ichki qal'asida qabilalar uyushmasi sardorining saroy-qarorgohi va qishloq xo'jalik mahsulotlari zahiralarni saqlanishiga mo'ljallangan xumlardan iborat omborxonalar va don o'ralari aniqlangan. Hamda qal'ada temir eritish va temirga ishlov berish ustaxonaning qoldiqlari topilgan³¹.

Ko'zaliqir moddiy madaniyati tarkibida saklarga xos qo'lda ishlangan sopol idishlar, bronza o'q uchlari va ot anjomlari mavjud, lekin asosiy belgilarga ko'ra (arxitektura, g'ishtdan bunyod etilgan katta binolar, mudofaa tizimi, kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlar, temirga ishlov berish) va zardushtiylik dafn marosimlarining yoyilishi janubiy sivilizatsiyalar an'alarining keng tarqalishidan dalolat beradi.

Ko'zaliqir vohasida, Amudaryoning Dovdon o'zani bo'ylab Quysisoy, Yassiqir kabi o'troq chorvadorlarning manzilgohlari joylashgan. Janubiy Xorazmdagi Xazarasp vohasida bevosita Amudaryo o'zaniga yaqin xududda yashagan aholi dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan. Bundan Xumbuztepa, Qaratosh va Toshsaqa yodgorliklarda qo'lga kiritilgan arxeologik materiallar dalolat beradi³². Shuningdek, O'rta Amudaryoning so'l sohilida Ko'zaliqir madaniyatiga oid Qo'shqal'aning kashf etilishi tufayli, o'z paytida qadimgi Xorazmning janubiy chegaralari xususida masala ilgari surilgan edi³³. Bunday yondashuv o'z tarafdorlarini topib, Sh.T.Adilovning maqolasida, mil.avv.VI asrda G'arbiy Sug'd-Buxoro vohasi yerlarini o'zlashtirilishi jarayonlari to'g'ridan-to'g'ri xorazmliklarning migratsiyasi sifatida faraz qilingan³⁴.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, mil.avv. VI asrning birinchi yarmida Xorazmning aholi o'troq chorvadorlar va ziroatkorlarga bo'linishi, ularning hududiy joylashish doirasining

²⁷ Дандамаев М. А., Луконин В. Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: “Наука”, 1980. – С. 104.

²⁸ Дандамаев М. А. Политическая история Ахеменидской державы...С. 100-103.

²⁹ Мамедов М. Древняя архитектура Бактрии и Маргианы. – Ашхабад, 2003. – С. 85-86.

³⁰ Хасанов М. Илк темир ва антик даврда Суғд маданияти: Тарих фан. докт. (DSc) дисс... автореф. – Самарқанд: Миллий археология маркази, 2021. – Б. 32-33.

³¹ Вишневская О. А., Рапопорт Ю. А. Городище Кюзели-гыр... С.155-156.

³² Баратов С. Р. Новые данные по археологии Южного Хорезма // Археология Узбекистана. – Самарканд, 2013. № 1.

³³ Воробьева М. Г. Проблема «Большого Хорезма» археология // Этнография и археология Средней Азии. – М.: “Наука”, 1979. – С. 40-41.

³⁴ Адылов Ш. Т. Западный Согд в VI в. до.н.э. – IV в.н.э. (очерк по политической и этнической истории региона) // ИМКУ. – Ташкент, 2024. Вып 44. – С. 124-125.

kengayib borishi, dehqonchilik uy-qo'rg'onlari va qal'alarining paydo bo'lishi va hunarmandchilikning yangi asoslarda rivojlanishini ko'rsatib beradi.

References:

1. Герадот. I. 201.
2. Кузьмина Е. Е. Экология степей Евразии и проблема происхождения номадизма. II. Возникновение кочевого скотоводства // ВДИ. – М., 1997. № 2. – С. 81-94.
3. Лившиц В. А. Общество Авесты // История Таджикского народа. – М. 1963. Т. I. – С. 139-144.
4. Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи. – Тошкент, 2017. – Б. 151.
5. Матякубов Х. Х. Хоразм воҳасида қадимги бошқарув тизими ва ижтимоий муносабатлар муаммолари (бронза ва илк темир даври) // Ўзбекистон давлат бошқаруви ва маҳаллий ўз-ўзини бошқарув тарихи. – Тошкент, 2014. – Б. 188-196.
6. Першиц А. И., Монгайт А. Л., Алексеев В. П. История первобытного общества. – М.: “Высшая школа” 1968. – С. 194-195.
7. Пьянков И. В. Общественный строй ранних кочевников по данным античных авторов // Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. – Л., 1975. – С. 84-93.
8. Курбонова Д. Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – Б. 172.
9. Сазонова М. В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. – Л., 1978. – С. 54-56.
10. Страбон. Кн. XI, VIII, 4-5.
11. Вайнберг Б. И. Скотоводческие племена в древнем Хорезме // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1981. – С. 121-123.
12. Вайнберг Б. И., Юсупов Х. Кочевники северо-западной Туркмении // Степная полоса азиатской части СССР в скифо-сарматское время. – М.: “Наука”, 1992.
13. Яблонский Л. Т. Формирование культуры саков Южного Приаралья // СА. – М., 1991. № 1. – С. 72-89.
14. Ясна. Глава XIX // Перевод Виноградовой С. П. Хрестоматия по истории Древнего Востока. – М.: “Высшая школа”, 1980. – С. 64.
15. Юсупов Х. Ю. Памятники древних кочевников Заузбойского плато // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1981. – С. 142-143.
16. Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). XI жилд. – Тошкент: “Ozbekiston”, 2023. – Б. 38-40.